

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI
1-SON

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

2023
VOLUME №1



**QO‘QON
UNIVERSITETI
XABARNOMASI
1-SON**

**KOKAND
UNIVERSITY
HERALD
VOLUME 1**

**ВЕСТНИК
КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТ
ВЫПУСК 1**

1/2023

QO'QON UNIVERSITETI

XABARNOMASI

Ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

G'.E.Zaxidov

Bosh muharrir:

Sh.R.Ruziyev

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2023

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

Mundarija:/Outline:

| Iqtisodiyot / Economy | | | |
|---------------------------------|---|---|---------|
| 1. | K. Konstantin | Factors and vector of the development of institutions in the sme sector of the national economy | 3-7 |
| 2. | B. Khursanaliyev | The impact of population growth on the country's economic development | 8-11 |
| 3. | N. Sharapova | Network analysis of social media research in entrepreneurship development | 12-15 |
| 4. | M. Абдуллаев | Тенденции и перспективы развития сферы услуг в узбекистане | 16-20 |
| 5. | Г. Карабаева | Стимулы развития малого бизнеса для повышения качества жизни населения | 21-24 |
| 6. | A. Вахромов | Problems of the digitalization process in networks and sectors of the economy | 25-28 |
| 7. | Sh. Dexkanov | Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish | 29-34 |
| 8. | N. Karimova | Analysis of the current state of retail advertising: a systematic mapping study | 35-38 |
| 9. | O. Исоев | Внедрение международных стандартов при исламском финансировании в узбекистане | 39-42 |
| 10. | J. Nuritdinov, A. Abdullayev | O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi | 43-47 |
| 11. | J. Qodirov | Davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning investitsiyaviy samaradorligini oshirishda soliq va sug'urtalashning o'rni | 48-50 |
| 12. | S. Rustamova | Korxonalarda qabul qilingan qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta'sirini iqtisodiy matematik modellashirish | 51-56 |
| 13. | A. Sattorov | Auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvlari o'tkazish jarayonida dalillarni to'plash ahamiyati va zaruriyati | 57-60 |
| 14. | B. Turanboyev Sh. Nishonkulov | Does inflation significantly affect stock investments and their price? | 61-64 |
| 15. | A. Xojayev | Oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari faoliyatidagi daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirish yo'llari | 65-68 |
| 16. | M. Xomidov | Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o'rni | 69-72 |
| 17. | N. Yuldasheva, A. Umarov, A. Abdullayev | Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi | 73-75 |
| 18. | A. Yusupov | O'zbekiston iqtisodiy sharoitida inson resurslaridan foydalanishdagi faoliyat turlari | 76-78 |
| 19. | M. Turg'unov | Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda ekonometrik prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish | 79-83 |
| 20. | D. Мамаюсупова | Мамлакатизда давлат-хусусий шериклиги асосида туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари | 84-90 |
| 21. | K. Ахмеджанов Ф. Зайниев | Аҳоли даромадлари ва харажатлари балансига жисмоний шахслар даромад солигининг оптимал таъсирини таъминлаш йўллари | 91-96 |
| Pedagogika / pedagogy | | | |
| 22. | Sh. Jumanova | Peyzajning ijtimoiy - psixologik motivni anglatishdagi o'rni | 97-99 |
| 23. | O. Kasimova | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyati jarayonida pedagogik improvizatsiyaning o'rni | 100-102 |
| 24. | B. Safarov | Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish | 103-105 |
| 25. | A. Тангриев | Малакали дзюдочиларни тайёрлашда буралиб улоқтириш бўйича малака тавсиялар | 106-111 |
| Lingvistika / Linguistics | | | |
| 26. | D. Azimova D. Solidjonov | Learning english language as a second language with augmented reality | 112-115 |
| Qishloq xo'jaligi / Agriculture | | | |
| 27. | A Xatamov X. Jabborov | «BUXOROISHARIF» zavod tipining asosiy xususiyatlari | 116-118 |



AUDITORLIK TASHKILOTLARI TOMONIDAN AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI O'TKAZISH JARAYONIDA DALILLARNI TO'PLASH AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Sattorov Alisher

TDIU mustaqil izlanuvchi, PhD, dotsent

alisher4090@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 1

Maqola raqami: 13

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.250>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

AXS, auditorlik tekshiruvi, audit dalillari, daillar tahlili

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada auditorlik tekshiruvlari jarayonida auditorlik dalillarini tushunish masalasi, ularga qo'yiladigan talablar, ularni olishning tegishli usullari va yo'llarini qo'llash, ayrim turdagi operatsiyalar va hisobot ob'ektlari bo'yicha auditorlik dalillarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari, tashqi tasdiqlar (so'rovlar) va boshqa jihatlar o'rganilgan.

Kirish. Moliyaviy xisobotlar auditini o'tkazayotganda auditor tekshirilayotgan moliyaviy xisobotlar MHXSga mos kelishi yoki undan chetlanishlar bo'lgan xollarni aniqlashi uchun zaruriy dalillarni to'playdi. Shu dalillar asosida auditor moliyaviy xisobotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri tuzilganini aniqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, dalillar audit tekshiruvining asl mohiyatini tashkil etadi. Auditor moliyaviy xisobotlar yuzasidan o'z professional fikrini bildira olishi uchun etarli miqdordagi va sifatli dalillar to'planishi lozim.

Audit tekshiruvi davomida auditor qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan dalillar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Misol uchun, aktivlarni shaxsan tekshirish, operatsiyalarning haqiqatdan xam sodir bo'lganini uchinchi tarafdin tasdiqlashi, auditorning mijoz bilan o'zaro telefon orqali muloqoti natijasida olingan ma'lumotlar va boshqalar.

Audit dalillari faqatgina etarli miqdorda emas, balki etarlicha sifatli, ishonchli bo'lishi dorkor. Dalil sifatli bo'lishi uchun esa u o'z kuchini yo'qotmagan va tekshirilayotgan ob'ektga aloqador bo'lishi lozim.

To'planishi lozim bo'lgan audit dalillarining miqdorini auditorning o'zi professional muloxazasiga asoslangan xolda belgilaydi. Audit dalillarining sifatiga esa bir qator omillar ta'sir etishi mumkin. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- dalillar mijoz korxonadan tashqari manbaalardan olinganda ularning ishonchligi yanada ortadi;
- mijozning ichki nazorat tizimi korxonada tayyorlangan buxgalteriya ma'lumotlari sifatiga ta'sir etadi;
- auditor tomonidan dalillar be'vosita olinganda bu dalillar bilvosita olinganga qaragandagi ishonchligi yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Rossiyalik olim Ya.V.Sokolov (Ya.V.Sokolov, 2012) o'z tadqiqot ishida auditorlik dalillarning ahamiyatini ochib bergan. Shuningdek, Professor H.N.Musaev (H.N.Musaev, 2002) auditorlik dalillarini: olinish tartibi, olinish usuli, asoslanishi va kelib chiqish joyi kabi mezonlar bo'yicha turkumlagan.

Professor Z.T.Mamatov (Z.T.Mamatov, 2004) ham auditorlik dalillarini uchta mezon (ichki, tashqi, aralash) bo'yicha guruhlab, moliyaviy hisobot auditida qo'llashning uslubiy jihatlarini ochib bergan. Shuningdek, auditorlik dalillarni to'plashga statistik usullarni qo'llash masalalari tadqiq qilingan.

E.A.Arens va Dj.Lobbek fikricha (E.A.Arens va Dj.Lobbek, 2012), xalqaro va milliy standartlar hamda auditorlik dalillar va auditorlik muolajalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushunish auditda muhim ahamiyatga ega.

Professor D.Rajaboyev (D.Rajaboyev, 2010) ta'kidlashicha, auditorlik dalillar audit jarayonida tekshirilayotgan mijoz – korxonada va uchinchi shaxslardan olingan axborotlar hamda ularni tahlil qilish natijalari bo'lib, moliyaviy hisobotning ishonchligi to'g'risida auditorlik xulosasi tuzish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, guruhlash usullari qo'llanildi. Tadqiqot so'ngida ilmiy xulosalar yasaldi.

Tadqiqot natijalari. Audit dalillarining etarligi, ularga asoslanib auditor moliyaviy xisobotlarga nisbatan biror fikr hosil qilishi uchun etarli miqdorda bo'lishini nazarda tutadi. Dalillarining etarligini belgilash auditorning professional muloxazani talab etadi. Shu o'rinda quyidagi omillar audit dalillarining etarligini belgilashda axamiyat kasb etishi mumkin:

- audit dalillarining miqdori ularning sifati bilan teskari bog'lanishda bo'ladi. Ya'ni, dalillar qanchalik sifatli bo'lsa, ularni shuncha kamroq miqdorda to'plash mumkin;
- dalillarining miqdori muximlikka xam bog'liq. Ya'ni tekshirilayotgan ob'ekt qanchalik muxim bo'lsa, to'planishi lozim bo'lgan audit dalillari xam shunchalik ko'proq bo'lishi lozim. Muxim bo'lmagan ob'ektlarga nisbatan kam miqdordagi dalillar to'planishi yoki umuman to'planmasligi xam mumkin.

Audit predmeti xo'jalik faktlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va o'rganishni o'z ichiga oladi, bu ko'proq darajada nazorat-auditorlik jarayonida amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi rejalashtirilgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash, tashkilot buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchligi va haqiqiylikni aniqlash uchun yetarli miqdordagi sifatli (har tomonlama) dalillarni olish imkonini beradi.

Auditorlik tekshiruvdan oldin va uning davomida barcha bajarilgan tartib-taomillar va olingan ma'lumotlar (auditorlik dalillari) auditorning ish hujjatlarida aks ettiriladi.

Avvalgi audit davomida olingan ma'lumotlar (agar auditor avvalgi audit tugaganidan keyin ushbu ma'lumotlarning joriy audit maqsadlarida qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bo'lmaganiga ishonch hosil qilgan bo'lsa), auditorning yangi mijozni xizmat ko'rsatishga qabul qilish yoki mavjud mijoz bilan hamkorlikni davom ettirish masalasini hal qilish tartibini belgilaydigan ichki sifat nazorati tartib-taomillari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, buxgalteriya hisobi yoki audit bilan bog'liq bo'lmagan ekspert baholash xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan tayyorlangan, tekshirilayotgan shaxs tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida jalb qilingan ma'lumotlardir.

Auditorlik dalillarini to'plashni strategik rejalashtirishda mantiqiy fikrlashni "ishga solish" kerak. Auditorlik dalillarini to'plash strategiyasi shundan iboratki, auditorlik guruhi to'plangan dalillar asosida fikr bildirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun yetarlicha zarur auditorlik dalillarini qanday qilib to'plashni ko'rib chiqish haqida bosh qotiradi. Nazorat ma'lumotlari manbalariga qarab, auditorlik dalillarini to'plash hujjatli va haqiqiy audit usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Hujjatli audit tekshiruvdan o'tgan xo'jalik operatsiyasining mohiyatini u aks ettirilgan dastlabki hujjatlar, hisoblar va hisobotlar ma'lumotlariga ko'ra aniqlashdan iborat.

Haqiqiy audit mol-mulk va moddiy boyliklarning haqiqiy qoldig'ini aniqlash uchun ishlatiladigan turli usullar (qayta hisoblash, tortish, o'lchash, laboratoriya tahlillari va boshqalardan foydalangan holda tekshirish ob'ektlarining amaldagi, haqiqiy holatini aniqlashdan iborat.

Auditorlik guruhi aniqlangan auditorlik dalillari asosida asosli xulosalar chiqarishga yordam beradigan zarur ma'lumotlarni to'plash uchun haqiqiy nazorat va hujjatli tadqiqot usullaridan foydalanishi kerak. Har qanday dalil og'zaki emas, balki yozma ravishda qabul qilinsa, uning qiymati ortadi.


Auditorlik dalillarini to'plash quyidagi majburiy mezonlarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak (1-rasm):



1-rasm. Auditorlik dalillarini to'plashning majburiy mezonlarni³⁶


Auditorlik dalillarini to'plash davomida auditorlar tekshiruv uchun representativ tanlashdan foydalanishga qaror qilishadi. Auditorlik dalillari auditorlik amaliyoti asosida auditorlar tomonidan belgilanadigan audit maqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lishi lozim. Dalillarni to'plash jarayonida so'rovnomalar testlaridan foydalanish mumkin, ular davomida o'rganilayotgan tashkilotning ichki nazorati va buxgalteriya hisobining kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi.

Yuqori darajali ishonchni ta'minlash uchun auditorlik dalillari turli vositalar yordamida va turli manbalardan olinadi (2-rasm):



2-rasm. Yuqori darajali ishonchni ta'minlash uchun auditorlik dalillari turli vositalar yordamida va turli manbalardan olinadi³⁷

Asosiy dalil bo'lib auditor bevosita o'zi to'plagan xo'jalik faoliyati holatlari to'g'risidagi axborot hisoblanadi. Auditorlik dalillarini to'plash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi (3-rasm):



3-rasm. Auditorlik dalillarini to'plash shakllari³⁸

Auditor tomonidan to'g'ridan-to'g'ri jismoniy tekshirish, kuzatish, arifmetik tekshirish va inspeksiya o'tkazish natijasida olingan dalillar, odatda, ishonchliroq bo'ladi.

1-jadval.

"Auditorlik dalillari" 500 son AXSning boshqa standartlar bilan o'zaro bog'liqligi³⁹

| No | AXS nomi | Xususiyatlari |
|----|--|---|
| 1. | 200-sonli AXS "Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditorlik tekshiruvini Auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish" | Etarlicha ishonchga ega bo'lish uchun auditor auditorlik xatarini maqbul darajada pasaytirish uchun yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olishi kerak, bu esa auditorga o'z fikrini asoslash uchun asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi. |
| 2. | 230-sonli AXS "Auditni hujjatlashtirish" | AXS talablari, amaldagi qonunchilikda qo'llaniladigan va me'yoriy talablarga muvofiq amalga oshirilgan auditorlik tartib-taomillarining tabiati, vaqti va hajmini hujjatlashtirish talabi; bajarilgan audit tartib-taomillari va olingan auditorlik dalillari natijalarini talab qilish. |
| 3. | 240-sonli AXS "Moliyaviy hisobotlar auditida firibgarlik holatida auditorning majburiyatlari" | Auditor amalga oshirilgan auditorlik tartib-taomillari va olingan auditorlik dalillariga asoslanib, tasdiqlash darajasidagi jiddiy xatolar riskini baholash qabul qilinganligi yoki yo'qligini baholashi kerak (auditor moliyaviy ma'lumotlarda noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligini baholash uchun tegishli tartib-taomillarni bajariganidan keyin). firibgarlik faoliyati natijasidagi bayonotlar). Bunday baholash firibgarlik natijasida yuzaga kelgan jiddiy xatolar riskiga qo'shimcha tushuntirishlarni taqdim etishi va auditorlik dalillarini to'plash bo'yicha qo'shimcha yoki boshqa auditorlik tartib-taomillarini bajarish zarur yoki zarur emasligini aniqlashi mumkin. |

³⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

³⁷ Muallif tomonidan tuzilgan

³⁸ Muallif tomonidan tuzilgan

³⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

| | | |
|-----|---|---|
| 4. | 315-sonli AXS "Jiddiy xatolar riskini tadbirkorlik sub'ekti va uning biznes muhitini bilish asosida aniqlash va baholash" | Xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning SVKga oid zarur auditorlik dalillarini, jiddiy xatoliklar riskini aniqlash va baholash uchun dalillarni olishga qo'yiladigan talablar. |
| 5. | 330-sonli AXS "Baholangan risklarga javoban auditorning harakatlari" | Amalga oshirilgan auditorlik protseduralari va olingan auditorlik dalillariga (baholangan risklar doirasida) asoslanib, auditor auditni yakunlashdan oldin tasdiqlash darajasida jiddiy risklar xatarini baholash maqbuligicha qolishi yoki yo'qligini baholashi kerak. Shuningdek, auditor yetarli va maqbul auditorlik dalillari olingan yoki yo'qligini hal qilishi kerak. U fikrni shakllantirishda barcha tegishli auditorlik dalillarini, ular moliyaviy hisobotdagi tasdiqlarni qo'llab-quvvatlashi yoki ularga zid kelishidan qat'i nazar, hisobga olishi kerak. Agar auditor moliyaviy hisobotdagi biron bir muhim tasdiq bo'yicha yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olmagan bo'lsa, auditor qo'shimcha auditorlik dalillarini olishga harakat qilishi kerak. Agar auditorning yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish imkoni bo'lmasa, auditor moliyaviy hisobot bo'yicha fikrini shartli-ijobiy tarzda bildirishi yoki umuman fikr bildirishdan bosh tortishi kerak. |
| 6. | 501-sonli AXS "Auditorlik dalillari – tanlangan to'plamni maxsus ko'rib chiqish" | Auditorga: a) tovar-moddiy xaziralarning mavjudligi va holati; b) xo'jalik yurituvchi sub'ektga oid sud ishlari va da'volar bo'yicha ma'lumotlarning to'liqligi; c) qo'llaniladigan moliyaviy hisobotning konseptual asosiga muvofiq segmentlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish va oshkor qilish bilan bog'liq yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish yuzasidan tavsiyalar |
| 7. | 505-sonli AXS "Tashqi tasdiqnomalar" | Auditor tashqi tasdiqlash tartib-taomillarini qo'llashda yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish imkonini beradigan tartib-taomillarni ishlab chiqishi va bajarishi kerak. |
| 8. | 520-sonli AXS "Tahliliy tartib-taomillar" | Tahliliy tartib-taomillarni bajarishda yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olishga qo'yiladigan talablarni; shuningdek, audit yakunida auditorga moliyaviy hisobotning xo'jalik yurituvchi sub'ekt haqidagi tushunchasiga muvofiqligi to'g'risida umumiy xulosani shakllantirishda yordam beradigan tahliliy tartib-taomillarni ishlab chiqish va amalga oshirish zaruratini o'z ichiga oladi. |
| 9. | 530-sonli AXS "Auditorlik tanlash" | Auditorlik namunalardan foydalanishda auditor tanlab olingan jamlanma to'g'risida asosli xulosalar chiqarishi uchun yetarli, ishonchli va maqbul dalillarni olishi kerak. |
| 10. | 570-sonli AXS "Faoliyatning uzluksizligi" | Olingan auditorlik dalillariga asoslanib, auditor, auditorlik fikriga ko'ra, alohida yoki umumiy holda xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatiga jiddiy shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan voqea yoki shart-sharoitlar bilan bog'liq muhim noaniqlik mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida xulosa chiqaradi. |
| 11. | 580-sonli AXS "Yozma bayonotlar" | Yozma bayonotlar – bu auditorga zarur bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotlarini tekshirish bilan bog'liq ma'lumotlar. Shuning uchun, so'rovlarga javoblar singari, yozma bayonotlar ham auditorlik dalillari hisoblanadi. Yozma bayonotlar zarur auditorlik dalillarini taqdim etsa-da, ularning o'zi ko'rib chiqiladigan har qanday masala bo'yicha yetarli va maqbul auditorlik dalillari sifatida yetarli emas. Bundan tashqari, boshqaruv xodimlari haqqoniy yozma bayonotlarni berganligi fakti auditor boshqaruv xodimlarining majburiyatlarini bajarishi yoki aniq tasdiqlar bo'yicha oladigan auditorlik dalillarining tabiati va hajmiga ta'sir qilmaydi. |
| 12. | 610-sonli AXS "Ichki auditorlar ishidan foydalanish" | Tashqi auditor umuman ichki audit bo'linmasining asosiy ishiga nisbatan auditorlik tartib-taomillarini yetarlicha bajarishi kerak, chunki u audit maqsadlarida yetarli yoki yetarli emasligini aniqlash uchun undan foydalanishni rejalashtiradi. |
| 13. | 620-sonli AXS "Auditor tomonidan jalb etilgan ekspert ishidan foydalanish" | Ushbu standart buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilotning ishiga nisbatan auditorning javobgarligini belgilaydi, shuningdek, auditor ularning shu sohadagi ishidan yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish maqsadida foydalanadi. |

Muhokama. Auditorlik dalillari – auditorlik tekshiruv jarayonida auditor tomonidan olingan ma'lumotlar va bu ma'lumotlarning tahlili natijasi bo'lib, ular asosida auditorlik xulosasi chiqariladi. Audit dalillariga moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlar uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlar va buxgalteriya yozuvlari, audit o'tkazilayotgan shaxs vakolatli xodimlarining yozma tushuntirishlari va turli manbalardan (uchinchi shaxslardan) olingan ma'lumotlar kiradi.

Audit o'tkazish va auditga tegishli va tegishli bo'lmagan boshqa xizmatlar ko'rsatilishdan oldin, tashkilot xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati bilan yetarli darajada tanishib chiqishi kerak.

Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlari auditini o'tkazishda auditorlik tashkiloti buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining ishonchliligiga, auditning borishi yoki auditorlik xulosasida keltirilgan xulosalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalar, operatsiyalar, foydalaniladigan hisob usullarini to'g'ri baholash uchun tekshirilayotgan iqtisodiy sub'ekt faoliyatini yetarlicha tushunishi kerak.

Moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazishda auditor moliyaviy hisobotga, audit yoki auditorlik xulosasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalar, operatsiyalar va amaliyotlarni tushunish uchun mijozning biznesi haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi yoki bilimni olishi kerak.

Moliyaviy hisobotning AXS talablariga muvofiq sifatli auditini o'tkazish uchun auditor ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni to'plashi va qayta ishlashi, ular asosida auditorlik hisobotini tayyorlashi kerak. Auditorlik dalillarini tushunish masalasi, ularga qo'yiladigan talablar, ularni olishning tegishli usullari va yo'llarini qo'llash, ayrim turdagi operatsiyalar va hisobot ob'ektlari bo'yicha auditorlik dalillarini

yaratishning o'ziga xos xususiyatlari, tashqi tasdiqlar (so'rovlar) va boshqa jihatlar. bir qator Auditning xalqaro standartlari bilan tartibga solinadi.

AXS 500ga muvofiq, auditorlik dalillari — bu auditor o'z xulosalarini shakllantirishida foydalanadigan ma'lumotlar, ular asosida auditorlik fikri shakllanadi. Auditorlik dalillari moliyaviy hisobotlar uchun asos bo'lgan buxgalteriya yozuvlaridagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, auditorlik tekshiruv vaqtida korxonaning tekshirilgan moliyaviy hisoboti bo'yicha fikr bildirish uchun auditorga kerak bo'lishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlarni olishning soni, turlari, muddatlari va manbalari auditor tomonidan o'z kasbiy mulohazasiga, ichki nazorat tizimiga ishonch darajasiga, auditorlik riski va u bajarishi kerak bo'lgan maxsus vazifalarning umumiy miqdoriga qarab mustaqil ravishda belgilanadi.

Auditorlik dalillarini to'plash, hujjatlashtirish va sharhlash muammosi ko'psonli AXSda to'liq aks ettirilgan.

Auditorlik dalillarining yetarliligi va maqbulligi o'zaro bog'liqdir. Auditorlik dalillarining zaruriy miqdori auditorning jiddiy risklar xavfini baholashiga (baholangan xavf qanchalik yuqori bo'lsa, auditorlik dalillari shunchalik ko'p talab qilinadi), shuningdek, bunday auditorlik dalillarining sifatiga (sifat qanchalik baland bo'lsa, shunchalik kam dalil kerak bo'ladi) bog'liq. Biroq, auditorlik dalillarini ko'proq olish ularning sifatsizligini qoplashi shart emas. Auditorlik dalillarining yetarliligini aniqlashga ta'sir etuvchi omillar orasida quyidagilarni keltirish mumkin: auditorlik riski darajasi; moliyaviy hisobotdagi moddaniy (hisob-kitob) muhimligi; auditorning oldingi auditorlik tekshiruvlari jarayonida egallagan tajribasi; audit tartib-taomillari natijalari, shu jumladan aniqlanishi mumkin bo'lgan firibgarlik yoki xatolar; mavjud

ma'lumotlarning turi.

Fikrimizcha, dalillar to'plangan va kuzatuvlar o'tkazish uchun haqiqiy asos sifatida foydalaniladigan ma'lumotlar, shuningdek, o'tkazilgan auditga nisbatan chiqarilgan xulosalardir. Ular ma'lum bir holatni qo'llab-quvvatlovchi ishonchli dalillarni keltirish orqali aniq bayonotning haqiqiyligini ta'minlaydi. Strategik audit rejasini ishlab chiqishda auditorlik dalillarini to'plash usullariga o'rin beriladi, ularni auditorlik tashkiloti zarur dalillarni to'plash va tahlil qilish uchun foydalanishni rejalashtirgan. Bundan tashqari, rejada auditorlar ma'lum mezonlarga rioya qilingan yoki qilinmaganligini baholash uchun auditorlik dalillaridan qanday foydalanishlari ko'rsatilgan, bu ularga audit natijalari bo'yicha xulosa chiqarish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Auditorlik dalillarining ishonchligi, agar ular xo'jalik yurituvchi sub'ektdan tashqaridagi mustaqil manbalardan olingan bo'lsa, sezilarli darajada oshadi.

2. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida olingan auditorlik dalillarining ishonchligi, agar u tomonidan kiritilgan tegishli ichki nazorat choralari, shu jumladan, ma'lumotlarni tayyorlash va saqlash ustidan nazorat samarali bo'lsagina oshadi.

3. Bevosita auditor tomonidan olingan auditorlik dalillari bilvosita yoki taxminlar asosida olingan dalillarga qaraganda ishonchliroqdir.

4. Hujjatli ko'rinishdagi (qog'oz, elektron yoki boshqa shakldagi)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sokolov Ya.V. Eticheskij kodeks professionalnogo auditora. M.: «Buxgalterskiy uchët». №8, 1992 g. s. 12-13.

2. Musaeov H.N. Audit. Darslik, T.: "Moliya", 2003 y., 179 b.

3. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. TMI.. 2004. 348 b.

4. Arens E.A., Lobbek Dj.K. Audit: per. s angl. / Gl. redaktor serii prof. Ya.V.Sokolov – M.: «Finansi i statistika», 2012. – 560 s.:il. – (Seriya po buxgalterskomu uchetu i auditu).

5. "Auditorlik dalillari" 500 son AXS

6. Kucherov A.V. Osobnosti audita za rubejom / A.V. Kucherov, Ya.M. Kozicheva // Molodoy ucheniy. — 2013. — № 5. — S. 339–343.

7. Myasnikov V. V. Schetnaya palata kak institut gosudarstvennogo finansovogo kontrolya na urovne sub'ekta

auditorlik dalillari og'zaki olingan dalillarga qaraganda ishonchliroqdir (masalan, aksiyadorlar yoki ta'sischilarning yig'ilishlarida muhokama qilingan masalalarni og'zaki bayon etishdan ko'ra, yig'ilishlarning o'z vaqtida tuzilgan yozma bayonnomalari ishonchliroqdir).

5. Asl hujjatlar (hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomalari, bank ko'chirmalari va boshqalar) bilan tasdiqlangan auditorlik dalillari fotosuratga olingan, fotonusxalar yoki faksimil nusxalar, shuningdek, raqamlashtirilgan yoki boshqa usulda elektron shaklga o'tkazilgan hujjatlar bilan tasdiqlanganidan ko'ra ishonchliroqdir. Bunday dalillarning ishonchligi uni tayyorlash va saqlash bo'yicha nazorat choralari bog'liq bo'lishi mumkin.

Bizningcha, auditorlik dalillarini olish manbalari bo'lib birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari, moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish natijalari, inventarlash materiallari, buxgalteriya hisoboti xizmat qilishi mumkin. Agar auditor turli manbalardan olingan dalillardan ularni taqdim etishning turli shakllaridan foydalansa, u holda auditorlik tavakkalchiligi kamayadi. Eng ishonchli dalillar mustaqil manbalar (uchinchi shaxslardan), mustaqil tahlil va yozma shaklda olinadi.

Axborot o'rinni bo'lishi, auditorlik tekshiruv jarayonida aniqlangan dalillar va ishlab chiqilgan tavsiyalarni tasdiqlashi, shuningdek audit maqsadlariga mos kelishi kerak. Axborot xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun foydali bo'lishi hamda unga auditorlik tekshiruv vazifalarini bajarishda yordam berishi ham zarur.

Rossiyskoy Federasii: dis. ... kandidata ekon. nauk: 08.00.10 / Myasnikov Vladimir Viktorovich. – M., 2002. – 253 s.

8. K. Axmedjanov, I. Yakubov: Audit asoslari/ darslik/ Toshkent-2010/ 291 bet.

9. A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov: Xalqaro audit/ darslik/ Toshket- 2015 / 397 bet

10. Nojkina T.V. Mejdunarodniy audit: Uchebnoe posobie / T.V. Nojkina. — Petropavlovsk-Kamchatskiy: KamchatGTU, 2007. — 127 s.

11. Plaksienko V.Ya. Perspektivi razvitiya auditorskoy deyatelnosti v Ukraine v sravnenii so stranami YeS / V.Ya. Plaksienko, K.V. Chernenko // Naukoviy visnik Ujgorodskogo nasionalnogo universi- tetu. — 2016. — Vipusk 7, chastina 3. — S. 12–14.

**QO'QON UNIVERSITETI
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА**

1 / 2023

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnoma asosida.
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida
chop etildi.



OJS
OPEN
JOURNAL
SYSTEMS

